

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

«BANK ISHI» kafedrası

**Kunduzgi 2-kurs «BANK ISHI» ixtisosligi
talabalari uchun**

**TANISHUV AMALIYOTI
DASTURI**

**Tuzuvchilar: K.N.Navruzova
Raxmonov I.X.**

**“Bank ishi” kafedrasining
27 may 2006 yil ____-sonli
majlisida muhokama qilindi va tasdiqlandi.**

Kafedra mudiri: I.f.d. Sh.Z. Abdullaeva _____

Toshkent-2006

I. TANISHUV AMALIYOTI VAZIFALARI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli Qaroriga asosan tasdiqlangan davlat standartiga asosan 5340700 – «Bank ishi» bakalavr yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalar IV semestrning oxirida 3 haftalik tanishuv amaliyoti o'tashlari lozim.

Tanishuv amaliyotini o'tkazishdan maqsad talabalarning o'z mutaxassislik sohasi to'g'risidagi fikr va tasavvurini boyitish, ularni respublika bank tizimi, ularning tarkibiy tuzilishi, ularning vazifa va funktsiyalari, tijorat banklari tomonidan bajariladigan minioperatsiyalar, bank faoliyatining ilk qoidalari bilan tanishtirishdan iborat.

Amaliyotning asosiy vazifasi: nazariy jihatdan olingan bilimlarni mustahkamlash, Xalq banki muassasalari misolida tijorat banklarining tuzilishi va operatsiyalarini o'rganishdan iborat.

II. TANISHUV AMALIYOTINING MAZMUNI

1. Xalq bankining tashkil etilishi, rivojlanish tarixi, tashkiliy tuzilishini o'rganish.

Talabaga Xalq bankining (bo'lim, filial, boshqarma) tashkil etilishi, uning qisqacha rivojlanish tarixini o'rganish; ushbu Xalq banki muassasasining tashkiliy tuzilishini, har bir bo'limning vazifalarini o'rganish; talaba Xalq banki bo'limlarining bajaradigan operatsiyalari va vakolatlarini yoritish vazifalari yuklatiladi.

2. Xalq bankining asosiy operatsiyalarini o'rganish.

Xalq bankining aholi bilan bog'liq operatsiyalari bo'yicha amaliyot materiallarini to'plash, o'rganish va izoh berish.

a) Aholi omonatlari, ularning turlari. Aholiga omonat turlarini ochish, omonat daftarini yopish, meros qoldirish va bu operatsiyalarni rasmiylashtirish.

b) Aholining hisob-kassa operatsiyalari, ya'ni kommunal va boshqa to'lovlarni qabul qilish, ular bo'yicha naqd pul yoki naqd pulsiz hisob-kitoblar o'tkazish va rasmiylashtirish.

v) «Talaba» va «Tahsil» krediti. Ularni berish qoidalari, hujjatlarni rasmiylashtirish, kreditni qaytarish va foiz to'lash usullari.

Tanishuv amaliyoti bo'yicha talabaga mutaxassislik kafedradan amaliyotga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi va bankdan amaliyotchi talabaning faoliyatini har kuni nazorat qiluvchi rahbar bank xodimi tayinlanadi.

III. TANISHUV AMALIYOTINI O'TISH JARAYONIDA AMALIYOTCHINING MAJBURIYATLARI

Talaba tanishuv amaliyotini o'tish davrida Xalq bankida o'rnatilgan ichki ish tartibiga rioya qilish va bankning jamoat ishlarida aktiv ishtirok etishi kerak.

Amaliyot o'tayotgan talaba dasturda ko'rsatilgan barcha vazifalarni bajarishi, bankning yo'riqnoma, qonun-qoidalari, xatlari bilan tanishib borishi lozim.

Tanishuv amaliyoti 2 tarkibiy qismdan iborat. Bular:

1. Xalq bankining tarkibi va strukturasi.

2. Xalq bankining bajaradigan asosiy operatsiyalari.

Amaliyot davomida talaba kundalik yuritib unda xar kuni bajargan ishlarini yoritib borishi kerak. Kundalikda bajarilgan ishlar quyidagi shaklda yozilib boriladi.

Sana	Ish joyi	Bajarilgan ishlar	Rahbarning imzosi
------	----------	-------------------	-------------------

Har bir ish kunining oxirida shu kungi amaliyot uchun rahbarlik qilgan xodimi talabaning bajargan ishlarini kundalik daftariga o'z imzosini qo'yishi orqali tasdiqlaydi.

IV. BANKDAGI O'QUV AMALIYOTI RAHBARINING MAJBURIYATLARI

Bank qarori bilan talabalar amaliyot o'tishi uchun qabul qilinadilar va amaliyot rahbari tayinlanadi. Amaliyotning umumiy rahbari hamda har bir ishchi o'rnida alohida rahbar tayinlanadi.

Amaliyot bo'yicha rahbar amaliyot boshlanishi bilan uch kun ichida talaba bilan birgalikda amaliyot grafigini quyidagi shaklda tuzishi lozim.

Ish joyi	Ish joyidagi rahbarining F.I.Sh.	Amaliyot boshlanishi	Muddati tugashi	Mustaqil xizmat ko'rsatish uchun korxonalar nomlari	Hisobotni topshirish muddatlari
-----------------	---	-----------------------------	------------------------	--	--

Bank rahbariyati tomonidan tasdiqlangan grafik asosida umumiy rahbar talabanning o'quv amaliyoti davomida bir ish joyidan 2-ish joyiga joylashtiradi va nazorat qilib turadi. Xar bir belgilangan ish joyida amaliyotni ta'minlagan bank xodimi rahbarlik qiladi. Amaliyot tugagandan so'ng umumiy rahbar talaba amaliyot davridagi faoliyatiga tavsifnoma berib, uning qaysi ish joyida mustaqil ishlay olishi, xulq-atvori, berilgan vazifa va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va boshqalar to'g'risida yozma xulosasini talabanning amaliyot kundaligida keltirishi zarur.

V. TALABANING TANISHUV AMALIYOTI BO'YICHA HISOBOTI VA UNI HIMOYA QILISH TARTIBI

Tanishuv amaliyoti bo'yicha hisobot har bir ish joyi bo'yicha alohida tuziladi.

Avvalo, amaliyot o'tilgan bank haqida umumiy ma'lumotlar keltirib, quyidagilarni yoritish talab qilinadi:

1. Qaysi bankda qaysi muddatlarda amaliyot o'tildi;
2. Amaliyot davrida qaysi mavzular bilan tanishildi;
3. Xizmat ko'rsatiladigan mijozlar soni;
4. Bank operatsiyalarining kompyuterlashtirish ahvoli;
5. Bank haqida o'z taassurotlari.

Har bir yoritilgan mavzular amaliy ma'lumotlar va rasmiylashtirilgan hujjatlar bilan to'ldirilishi kerak. Amaliyot so'ngida bank rahbari amaliyotchiga tavsifnoma berishi kerak.

O'quv amaliyoti tugagandan so'ng talaba «Bank ishi» kafedrasiga uch kundan kechikmasdan quyidagilarni topshirishlari lozim:

1. Bank tomonidan beriladigan tavsifnoma;
2. Bank rahbari tomonidan tasdiqlangan kundalik;
3. Dasturda ko'rsatilgan bo'limlar bo'yicha hisobot.

Hisobotning tuzilishi quyidagicha bo'lishi lozim:

1. Xalq bankining tuzilishi, rivojlanish tarixi, strukturasi va bo'limlar tomonidan bajariladigan operatsiyalar.
2. Bank operatsiyalari bo'yicha amaliyot materiallari va ularning tavsifi va tahlili.

Hisobotga taqriz olingandan so'ng kafedra tomonidan belgilangan muddatlarda hisobot komissiya oldida og'zaki himoya qilinadi.

Hisobotni himoya qilish muddati "Bank ishi" kafedrasiga tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Hisobot bo'yicha talabanning bilimi «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» va «qoniqarsiz» baholanishi mumkin.